

## Kuzning so'nggi kunlari

*Ro'zimurod Bolqiyev*



*Ro'zimurod Bolqiyev*  
1971

**Ro'zimurod Bolqiyev** 1971-yilda Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanida tug'ilgan. She'rlari "G'uncha", "Gulxan", "Tong yulduzi" jurnallarida, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Boshlang'ich ta'lim", "Ma'rifat" kabi gazetalarda e'lon qilingan. Muallifning to'rt qismdan iborat "Zukkolarga eslatma", "Har nening o'z tili bor" she'riy to'plamlari nashr qilingan.

Ayni paytda Jizzax viloyati Mirzacho'l tumanidagi 10-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlab kelmoqda.



Ko'rinmaydi qaldirg'och-u  
Baland uchgan turnalar.  
Chunki havo soviydi-yu  
Kundan kunga turlanar.

Bilamizki, yo'lda ular,  
Uchmoqda janub tomon.  
Betaloqat yetib olsin,  
Barchasi eson-omon.

Ko'rinadi ko'kda ba'zan,  
Zog'chalarning galasi.  
Ularga hayot berar,  
Dehqonlarning dalasi.

Shamol tunda uvullab,  
Derazani chertadi.  
To'kilgan barglarni  
Bilmam qayga eltadi.

Quruq sovuq, kuchli shamol,  
Qordan esa yo'q nishon.  
Qor yog'gani yaxshi edi,  
Quvonardim-a, ishon.

Tabiiy hodisalar  
Mo'jiza bilsang asli.  
Kuz o'rnini egallar  
Tezda go'zal qish fasli.



1. Qaldirg'och va turnalarning ko'rinmay qolishiga sabab nima?
2. Shoir janub tomonga yo'l olgan qushlarga qanday ezgu tilak bildiradi?
3. Osmonda qaysi qushlar ko'rinadi va ular qayerda oziqlanadi?
4. Tunda nima sodir bo'ladi?
5. Shoir qanday ob-havo bo'lishini xohlaydi va bu unga qanday kayfiyat bag'ishlaydi?
6. Muallif tabiiy hodisalarni nima deb ataydi?
7. She'rda tasvirlangan kuz fasli qanday: quvonchlimi yoki g'amgin?



**She'rni ifodali o'qishga tayyorlaning.**

